



O`ZBEK ZAMONAVIY MUSIQASI.

Ahmadjonova Nigoraxon Tajiddinovna

*Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti "Musika" ta'lim yo`nalishi 3- bosqich
talabasi*

Botirova Hilola :Ilmiy raxbar

Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti "Musika" ta'lim yo`nalishi o`qituvchisi

ANNOTATSIYA: Bizning O`zbek musiqamizda yangicha musiqa uslublari mustaqilikdan keying yillarda katta rivojlaninish bosqichlarida katta o`zgarishlar bo`lib o`tdi. Bunga yorqin dalil qilib musiqamiz tarixiga bir nazar solsek bunga yaqqol dalil bo`la oladi. Zamonaviy musiqamiz rivojlanishiga o`z hissasini qo`shgan bastakorlar va kompazitorlarni bir qator eslab o`tamiz.

**Kalit so`zi:** Zamonaviy musiqa, Falklor, An`ana, Kompazitor, Bastakor, Istiqbol, Barkamol, Milliy.

O`zbek zamonaviy musiqasi.

O`zbek zamonaviy musiqasi deganda hozirgi kunda ijro etilayotgan barcha musiqa turlari tushunamiz. Ular janr nuqtayi nazardan rang-barang bo`lib, oddiy musiyiy namunalar hamda murakkab asarlarni o`z ichiga oladi. Demak, bular o`zbek xalq folklor musiqasi maqomlar an`anaviy bastakorlik va zamonaviy kompazitorlik ijodiga mansub musiqiy namunalardir. Zamonaviy o`zbek musiqasi orasida kompazitorlik ijodi juda keng rivijlanib, xalq orasida ommalashdi. Ya`ni jahon musiqa madaniyatidan joy olgan opera, balet, simfoniya, oratoriya, cantata, musiqali drama, syuita, poema janrlarida yetuk asarlar yaratildi. Qisqa davrda qator kompazitorlar elga taniqlidir. Ular orasida Muxtor Ashrafiy, Tolibjon Sodiqov, Sobir Boboyev, Sulaymon Yudakov, Mutal Burxon, Rustam Abdullayev, Sayfu Jalil Kozlovskiy, Ikrom Akbarov, Ulug`bek Musayev,



simfoniya va oratoriyalar, konsert asarlari mualliflari-MIrsodiq Tojiyev, To'lg'in Qurbonov, Mirxalil Maxmudov , Rashid Xamroyev, Georg MUshel, Nuriddin G'iyosov, o'z ijodlari bilan oratoriyadan tortib to'entrada va bolalar qo'shiqlarida zamonaviy talablarga mos ijod qilayotgan Shermat Yormatov, Nadim Norxo'jayev, Alisher Rasulov, Alisher Ikromov, Dilorom Omonullayeva, Muhammad Otajonovlarni sanab o'tish mumkin. Shuni e'tiborga olish lozimki Zamonaviy musiqa tushunchasi faqat ko'p ovozli musiqa janrlariga tegishli bo'lib qolmay, yangi avlodga mos yangicha yo'llar bilan rivojlanib borayotgan an'anaviy bastakorlik ijodiyotiga ham taalluqlidir. Zamonaviy musiqa. Ma'lumki, har bir davr yoki zamon o'z taraqqiyot darajasi negizida o'zining ma'naviy dunyosiga ega bo'ladi. Jamiyatning ehtiyojiga xos talabi didiga xos dunyo qarashlari zamonasiga mutanosib holda shakllanadi. Istiqbolimiz tufayli shakllangan yangicha fikrlash, munosabatlar va dunyo qarashlar o'zimizga hos bo'lgan milliy istiqlol g'oyasiga asos soldi. Bu esa kelajakdagi buyuk davlatning ma'naviy barkamolligidan darakdir. Bugungi kunning asosiy talablari, har bir sohada mustaqil bo'lish, milliy qadryatlarimizni tiklash va jahonandozalari doirasida faoliyat ko'rsatishdan iboratdir. Buni biz musiqa san'atimizning tez rivoj topgani va ommaviy musiqiy shakllarning xalqimiz orasida keng tarqalganida ko'ramiz. Musiqamizda zamon ruhi bilan sug'orilgan umumbashariy musiqiy shakllar tobora rivojlanib bormoqda.Zamonaviy musiqamiz asl holda yangi dunyoviy janrlar bilan boyib borayotganini qayd etishimiz joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Boltaboyev J. A. Xadjavev. Maktabgacha ta'lim tashkilotilarida musiqa tarbiyasi darslik. Samarqand SamDU nashryoti.
2. Yu. Rajabiy.I. Akbarov. O'zbek xalq musiqasi tarixi.